

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019 yil 1 fevral holatiga)

2019 yilning yanvar oyida viloyatda 1119 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 743 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4839 ta (22,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26114 tani tashkil etgan.



*Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda.*

*Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2105	1974	59
 Sanoat	5111	4880	236
 Qurilish	2420	2290	96
 Savdo	6342	6022	488
 Tashish va saqlash	878	846	26
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1787	1716	98
 Axborot va aloqa	455	425	14
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	583	568	9
 Boshqa turlari	7670	7393	93



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**


2019 yilning 1 fevral holatiga 27351 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,2 foizi savdo, 18,7 foizi sanoat, 8,8 foizi qurilish, 7,7 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,5 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,2 foizi tashish va saqlash, 2,1 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,7 foizi axborot va aloqa hamda 28,1 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni eng ko'pi Samarqand shahri (8578 ta), Urgut (2357 ta), Pastdarg'om (2199 ta) va Samarqand (1900 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Nurobod (749 ta), Paxtachi (693 ta) hamda Qo'shrabot (601 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda.**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 26114 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4839 ta (22,7 %) ga oshgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,1 foizi savdo, 18,7 foizi sanoat, 8,8 foizi qurilish, 7,6 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,6 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,2 foizi tashish va saqlash, 2,2 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 foizi axborot va aloqa hamda 28,2 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, foizda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni Samarqand shahri (8169 ta), Urgut (2321 ta), Pastdarg'om (2072 ta), Ishtixon (1399 ta) va Payariq (1427 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (584 ta) va Paxtachi (660 ta) tumanlarida hamda Kattaqo'rg'on shahrida (933 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.02.2017 y.

• 19741 ta

01.02.2018 y.

• 21275 ta

01.02.2019 y.


• 26114 ta



### Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019 yil yanvar oyida 1119 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 197,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahri (349 ta), Samarqand (118 ta), Ishtixon (115 ta) va Pastdarg'om (78 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Paxtachi (25 ta) va Qo'shrabot (20 ta) tumanlarida hamda Kattaqo'rg'on shahrida (21 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi kamligini kuzatish mumkin.

#### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rilganda, eng ko'pi savdo (488 ta), sanoat (236 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (98 ta) hamda qurilish (96 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kamisi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy

xizmatlar (9 ta), axborot va aloqa (14 ta) hamda tashish va saqlash (26 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>360</b>	<b>100</b>	<b>376</b>	<b>100</b>	<b>1119</b>	<b>100</b>
Savdo	69	19,2	76	20,2	488	43,6
Sanoat	98	27,2	94	25,0	236	21,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	40	11,1	31	8,2	98	8,8
Qurilish	38	10,6	54	14,4	96	8,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	48	13,3	55	14,6	59	5,3
Tashish va saqlash	13	3,6	10	2,7	26	2,3
Axborot va aloqa	14	3,9	2	0,5	14	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	1,7	18	4,8	9	0,8
Boshqa turlari	34	9,4	36	9,6	93	8,2

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda**








## TIJORAT KORXONALARI.

2019 yil 1 fevral holatiga 22256 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5051 ta, oilaviy korxonalar – 2691 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 12499 ta va 2015 boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 408 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 125 taga yoki 44,2 % ga o'sgan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 300 tasi qo'shma korxonalar, 108 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahar (209 ta yoki jami ulushi 51,2 %), Urgut (39 ta yoki 9,6 %) va Jomboy tumanlari (34 ta yoki 8,3 %) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot (1 ta yoki 0,2 %), Narpay (5 ta yoki 1,2 %), Paxtachi (5 ta yoki 1,2 %) va Ishtixon (6 ta yoki 1,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 fevral holatiga ko'rsak, eng ko'p sanoatda 248 tani (60,8 %), savdoda 59 tani (14,5 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 24 tani (5,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 tani (1,0 %), axborot va aloqada 3 tani (0,7 %), tashish va saqlashda 7 tani (1,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 31 tani (7,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 tani (2,9 %) va qurilishda 20 tani (4,9 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo

faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 10 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga ko'paygan.

Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 3 ta, Rossiya Federatsiyasi – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 1 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta, Yaponiya – 1 ta va Afg'oniston Islom Respublikasi – 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yilning o'tgan davrida, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (5 ta), savdo (2 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (1 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2018 yil yanvar oyida		2019 yil yanvar oyida	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat			5	50,0
Savdo	2	40,0	2	20,0
Qurilish	1	20,0		
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	20,0	1	10,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	20,0	1	10,0
Axborot va aloqa				
Tashish va saqlash				
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish				
Boshqa turlari			1	10,0



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.**

2019 yil 1 fevral holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20640 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yilning 1 fevral holatiga qaraganda 26,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6891 tasi (33,5 %) Samarqand shahri, 1875 tasi (9,1 %) Urgut, 1600 tasi (7,8 %) Pastdarg'om hamda 1488 tasi (7,2 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20640 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5990 tasi (29,0 %) – savdo, 4848 tasi (23,5 %) - sanoat, 2285 tasi (11,1 %) - qurilish, 1930 tasi (9,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1699 tasi (8,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 824 tasi (4,0 %) - tashish va saqlash, 412 tasi (2,0 %) - axborot va aloqa sohasi,

466 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2186 tasi (10,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2019 yil yanvar oyida 1074 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 195,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (341 ta), Samarqand (116 ta), Ishtixon (112 ta) va Pastdarg'om tumanlari (73 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (17 ta), Nurobod (20 ta) hamda Paxtachi (24 ta) tumanlarida tashkil etilgan.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaraydigan bo'lsak eng ko'pi savdoda (488 ta), sanoatda (236 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (59 ta) hamda qurilishda (95 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (26 ta), axborot va aloqada (14 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) tashkil etilgan.

### Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 2794 tani tashkil etib, ulardan 2691 tasi yoki 96,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 59,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,6 foizi yoki 903 tasi sanoat, 27,3 foizi yoki 735 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 19,2 foizi yoki 517 tasi savdo, 9,3 foizi yoki 251 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 foizi yoki 31 tasi qurilish, 0,9 foizi yoki 24 tasi tashish va saqlash, 0,4 foizi yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 foizi yoki 38 tasi axborot va aloqa hamda 6,7 foizi yoki 180 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar


2019 yilning yanvar oyida jami 65 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 67 taga tugatish kamaygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.*

*Misol tariqasida 2017 yilda 71 ta, 2018 yilda 132 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvarida ushbu ko'rsatkich 65 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 67 taga tugatish kamaygan.*

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida  
dinamikasi, birlikda**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 65 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 18 tasi (27,7 %) savdo, 9 tasi (13,8 %) sanoat, 9 tasi (13,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6 tasi (9,2 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6 tasi (9,2 %) qurilish, 3 tasi (4,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 2 tasi (3,1 %) tashish va saqlashda, 1 tasi (1,5 %) axborot va aloqada hamda 11 tasi (17,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa tashish va saqlashda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
<b>Jami</b>	<b>132</b>	<b>100</b>	<b>65</b>	<b>100</b>	<b>-67</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	3,0	6	9,2	2
sanoat	12	9,1	9	13,8	-3
qurilish	8	6,1	6	9,2	-2
savdo	27	20,5	18	27,7	-9
tashish va saqlash			2	3,1	2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	3,0	9	13,8	5
axborot va aloqa	2	1,5	1	1,5	-1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish			3	4,6	3
boshqa turlari	75	56,8	11	17,1	-64

### Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2019 yil yanvar oyida 58 ta kichik tadbirkorlik sub'yektlari tugatilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda tugatilgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari 2 taga kamayganligini ko'rsatmoqda.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 18 tasi (31,0%) savdo, 8 tasi (13,8 %) sanoat, 6 tasi (10,3 %) qurilishda, 6 tasi (10,3 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9 tasi (15,5 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (3,4 %) tashish va saqlashda, 1 tasi (1,7 %) axborot va aloqada, 2 tasi (3,4 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 6 tasi (10,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Payariq -16 ta, Urgut -6 ta, Ishtixon -3 ta hamda Pastdarg'om 2 ta tumanlarida kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.